



ANALYSIS OF YOUTH SOCIO-POLITICAL ACTIVITY ON THE INTERNET

Bakhromjon Bakhridinov

Lecturer

Kokand State University

Kokand, Uzbekistan

E-mail: BaxriddinovBakhromjon79@gmail.com

ABOUT ARTICLE

Key words: Youth, internet, political activism, social networks, bloggers, digital citizenship, social awareness, online survey

Received: 25.05.25

Accepted: 27.05.25

Published: 29.05.25

Abstract: This article analyzes the socio-political activity of Uzbek youth on the Internet based on empirical research. Based on data collected through a questionnaire (Google Forms), the level of use of digital platforms by young people, their interest in political content, their willingness to express their opinions online, and the influence of bloggers were studied. The results showed that the Internet, especially social networks, has become an important factor in shaping political awareness and civic activity among young people. The majority of respondents trust non-traditional sources of information, in particular bloggers and influencers. At the same time, problems related to security and censorship are also observed in freely expressing their opinions. The article puts forward proposals for developing digital citizenship and increasing the participation of young people in political processes. This study serves to analyze the political socialization of young people in Uzbekistan in the digital environment.

YOSHLARNING INTERNETDAGI IJTIMOIY-SIYOSIY FAOLLIGI TAHLILI

Baxromjon Baxriddinov

o'qituvchi

Qo'qon Davlat universiteti

Qo'qon, O'zbekiston

E-mail: BaxriddinovBaxromjon79@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Yoshlar, internet, siyosiy faollik, ijtimoiy tarmoqlar, blogerlar, raqamli fuqarolik, ijtimoiy ong, onlayn so‘rovnama

Annotatsiya: Ushbu maqolada

O‘zbekiston yoshlarining internetdagi ijtimoiy-siyosiy faolligi empirik tadqiqot asosida tahlil qilingan. So‘rovnama (Google Forms) orqali to‘plangan ma’lumotlar asosida yoshlarning raqamli platformalardan foydalanish darajasi, siyosiy kontentga qiziqishi, onlayn fikr bildirishga tayyorligi va blogerlar ta’siri o‘rganilgan. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, internet, ayniqsa ijtimoiy tarmoqlar, yoshlar orasida siyosiy ong va fuqarolik faolligini shakllantiruvchi muhim omilga aylangan. Respondentlarning katta qismi axborot olishda noan’anaviy manbalarga, xususan, bloger va influyenserlarga ko‘proq ishonadi. Shu bilan birga, o‘z fikrini erkin ifoda etishda xavfsizlik va tsenzura bilan bog‘liq muammolar ham kuzatilmoxda. Maqolada raqamli fuqarolikni rivojlantirish va yoshlarning siyosiy jarayonlardagi ishtirokini oshirish bo‘yicha takliflar ilgari surilgan. Ushbu tadqiqot O‘zbekistonda yoshlar siyosiy ijtimoiylashuvining raqamli muhitda kechishini tahlil qilishga xizmat qiladi.

АНАЛИЗ СОЦИАЛЬНО-ПОЛИТИЧЕСКОЙ АКТИВНОСТИ МОЛОДЕЖИ В ИНТЕРНЕТЕ

Бахромжон Бахридинов

Преподаватель

*Кокандский государственный университет
Коканд, Узбекистан*

E-mail: BaxriddinovBaxromjon79@gmail.com

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Молодежь, Интернет, политическая активность, социальные сети, блогеры, цифровое гражданство, социальная осведомленность, онлайн-опрос

Аннотация: В статье на основе эмпирического исследования анализируется общественно-политическая активность узбекской молодежи в Интернете. На основе данных, собранных с помощью опроса (Google Forms), изучались уровень использования молодежью цифровых платформ, интерес к политическому контенту, готовность выражать свое мнение в Интернете и влияние блогеров. Результаты показали, что Интернет, особенно социальные сети, стал важным фактором формирования политической осведомленности и гражданской активности среди молодежи.

Большинство респондентов больше полагаются на нетрадиционные источники информации, в частности на блогеров и влиятельных лиц. В то же время существуют и проблемы, связанные с безопасностью и цензурой свободного выражения своего мнения. В статье выдвигаются предложения по развитию цифрового гражданства и расширению участия молодежи в политических процессах. Данное исследование направлено на анализ политической социализации молодежи Узбекистана в цифровой среде.

Kirish (Introduction). Yoshlarning internet tarmog‘idagi ijtimoiy-siyosiy faolligini o‘rganish maqsadida internetning google form platformasida so‘rovnama o‘tkazildi. So‘rovnama natijalariga ko‘ra, 14–30 yoshdagi yoshlarning internetdagi ijtimoiy-siyosiy faolligi bir qator jihatlarda o‘rganildi. Quyida har bir yo‘nalish bo‘yicha to‘plangan ma’lumotlar tahlil qilinadi va jamiyat barqarorligi, fuqarolik ongi hamda siyosiy ishtirok masalalari bilan bog‘liq falsafiy izohlar beriladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Yoshlarning raqamli makondagi ijtimoiy-siyosiy faolligini o‘rganish zamonaviy siyosatshunoslik, sotsiologiya va axborot texnologiyalari kesishgan nuqtada joylashgan dolzarb tadqiqot yo‘nalishlaridan biridir. D. Boyd (2014) raqamli fuqarolikning shakllanishida ijtimoiy tarmoqlarning markaziy o‘rinni egallashini, ayniqsa, yoshlar orasida siyosiy xabardorlikni oshirishdagi rolini ta’kidlaydi. Bu fikrni C. Loader va A. Mercea (2011) ham qo‘llab-quvvatlab, internet orqali yoshlar siyosiy ishtirokining kuchayishini raqamli ishtirok (digital engagement) tushunchasi orqali izohlaydi.

O‘zbekiston kontekstida esa mazkur masala hali chuqur o‘rganilmagan bo‘lsa-da, mavjud tadqiqotlar, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik islohotlar agentligi (2023) tomonidan chop etilgan tahliliy materiallar, yoshlarning axborot manbalariga nisbatan ishonch darajasi va raqamli texnologiyalarga bo‘lgan munosabatini aks ettiradi. Ularda ijtimoiy tarmoqlarning ta’siri, ayniqsa, blogerlar va inflyuenserlar orqali shakllanayotgan siyosiy va fuqarolik qarashlar haqida ma’lumotlar mavjud.


Shuningdek, Tufekchi (2017) o‘zining “Twitter and Tear Gas” asarida onlayn faollik va ijtimoiy harakatlar o‘rtasidagi murakkab aloqalarni yoritadi. U yoshlarning internetdagi norasmiy axborot manbalariga murojaat qilish orqali siyosiy jarayonlarda ishtirok etishga bo‘lgan intilishlarini ta’riflaydi. Bu holat O‘zbekistonda ham kuzatilmoqda: yoshlar rasmiy axborot vositalaridan ko‘ra blogerlar orqali siyosiy-ijtimoiy axborot olishga moyilroq.

Mahalliy miqyosda I. Jo‘rayev (2022) tomonidan yozilgan maqolalarda raqamli transformatsiya jarayoni va uning fuqarolik faollikka ta’siri muhokama qilingan. U O‘zbekistonda internet infratuzilmasi rivojlanayotgani va bu holat yoshlarning axborotga kirishini osonlashtirayotganini ta’kidlaydi.

Biroq, aksariyat tadqiqotlarda yoshlarning internetdagi siyosiy ishtirokining sifat jihatlari, xavfsizlikka oid xavotirlari, shaxsiy fikr bildirishga bo‘lgan ehtiyojkorligi kabi psixologik va ijtimoiy jihatlar yetarlicha yoritilmagan. Ushbu maqola aynan shu bo‘shliqni to‘ldirishga intiladi va empirik so‘rov asosida yoshlarning real onlayn siyosiy xatti-harakatlarini tahlil qilishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Ushbu tadqiqotda yoshlarning internetdagi ijtimoiy-siyosiy faolligi darajasini aniqlash, ushbu faollikning ko‘rinishlari va unga ta’sir etuvchi omillarni o‘rganish maqsad qilingan. Shu boisdan, tadqiqotda aralash uslubdagi metodologiya – sifat (qualitative) va miqdoriy (quantitative) yondashuvlar uyg‘unlashtirildi.

Yoshlarning ijtimoiy tarmoqlardagi faollik darajasi, ya’ni ular qay tarzda internetda faol ekanligi juda past ekani ko‘zga tashlanadi. So‘rovnoma da aksariyat ishtirokchilar o‘zlarini “faqat kuzatuvchi” deb ta’riflagan – bu guruh taxminan 74% ni tashkil qiladi




2.1-rasm. Ijtimoiy tarmoqlardagi faollik darajasi

Diagrammadan ko‘rinib turibdiki, respondentlarning to‘rtadan uch qismi ijtimoiy tarmoqlarda faqat kuzatadi, o‘qiydi, lekin faol ishtirok etmaydi. Yana 22% ga yaqin yoshlar “ba’zan like va izoh qoldiraman” deb javob bergan, ya’ni ular vaqtiga bilan ijtimoiy tarmoqlarda postlarga munosabat bildiradilar. Aksincha, atigi 2% atrofida yoshlar muntazam ravishda kontent joylaydi yoki faol targ‘ibotchi/bloger sifatida maydonga chiqadi. Bu

ko'rsatkichlar yoshlar orasida faol kontent yaratuvchilar kamligini, ularning ko'pchiligi esa passiv auditoriya ekanini anglatadi.

Bunday passivlik sabablari turlicha talqin qilinishi mumkin. Birinchidan, fuqarolik ongi endigina shakllanayotgan bo'lishi mumkin – yoshlar ko'proq kuzatib, xulosa chiqarishga intilayapti, lekin hali omma oldida faol chiqish qilishga tayyor emas. Ikkinchidan, ijtimoiy tarmoqlardagi muhit (senzura, tanqidga munosabat, va h.k.) ayrim yoshlarni faollikdan to'xtatishi, ehtiyyotkor bo'lishga undashi mumkin. Bu holat jamiyat barqarorligi uchun ikki xil ta'sirga ega: bir tomondan, keskin fikrlar kam bildirilishi yuzaga kelayotgan beqarorlik xavfini kamaytiradi; ikkinchi tomondan esa, faol fuqarolik pozitsiyasining sustligi jamiyatning dinamik rivojlanishiga to'sqinlik qilishi mumkin.

So'rov natijalariga ko'ra, onlayn petitsiya va raqamli kampaniyalarda ishtirok ham juda past darajada ekanligi aniqlandi




2.2-rasm.Onlayn petitsiya va raqamli kampaniyalarda ishtirok

Taqqoslash uchun, respondentlarning bor-yo'g'i 12% i hech bo'lmaganda biror marta onlayn petitsiya yoki fleshmobda qatnashganini aytgan, qolgan 88% esa bunday tadbirlarda ishtirok etmagan. Bu esa yoshlarning to'g'ridan-to'g'ri siyosiy-ijtimoiy aksiyalarda (hatto internet orqali bo'lsa ham) kam qatnashayotganini ko'rsatadi. Hozirgi sharoitda "Siyosiy hayotga axborotlashtirishning ta'sirini aniqlash, uning iqtisodiyotga ta'sirini aniqlashga qaraganda qiyinroq. Axborotlashtirish faqat harxil siyosiy kuchlar tomonidan turli-tuman siyosiyqarorlar va rejalar ishlab chiqish jarayonida foydalanish uchun ochiq bo'lgan imkoniyatlar maydonidir." [2] Bu kuzatuvchilik va sust ishtirok jamiyatdagi siyosiy ishtirokning pastligidan dalolat bo'lishi mumkin. Biroq, yoshlar passiv kuzatuvchi bo'lsa-da, ular ijtimoiy-siyosiy voqealardan bexabar

emaslar. Keyingi bo‘limlarda ular qaysi mavzularga qiziqish bildirayotgani va qanday platformalarda faol ekanini ko‘rib chiqamiz.

Yoshlar orasida qaysi ijtimoiy platformalar ommalashgani ularning internetdagi faoliyati ko‘lamini tushunishda muhim ahamiyatga ega. So‘rov natijalari yoshlar Telegram tarmog‘ini mutlaq ko‘pchilik holatda ishlatishini ko‘rsatdi



2.3-rasm. Yoshlar orasida qaysi ijtimoiy platformalar ommalashgani

Grafikdan ko‘rinib turibdiki, respondentlarning 99% Telegram’dan foydalansa, keyingi o‘rinlarda YouTube (74%) va Instagram (60%) turibdi. Bu uch platforma O‘zbekiston yoshlarining asosiy raqamli makoniga aylangan. TikTok (12%) va Facebook (10%) nisbatan kamroq ommalashgan, Twitter (X) esa juda kam – atigi 1% yoshlar foydalanadi.

Bu raqamlar zamirida yoshlarning axborot olish va muloqot qilish odatlari aks etadi. Telegram O‘zbekistonda nafaqat chat va xabarlar, balki yangiliklar kanallari tufayli ham mashhur – yoshlar yangilik va ijtimoiy-siyosiy kontentni tezkor olish uchun Telegram’ga tayanadi. YouTube esa ko‘ngilochar va ta’limiy videolar manbai sifatida keng qo‘llanadi, bu ham ijtimoiy-siyosiy mavzudagi kontentni (masalan, bloglar, intervylar) tomosha qilishga imkon beradi. Instagram ko‘proq shaxsiy suratlar, voqealar almashish maydoni bo‘lsa-da, unda ham ayrim jamoat arboblari va faollar siyosiy-ijtimoiy mavzularda fikr bildirishadi.


Shu bilan birga, TikTok va Twitterning nisbatan kam ishlatilishi diqqatga sazovor. TikTok ko‘proq yoshlarning ko‘ngilochar platformasi bo‘lsa-da, uning siyosiy-ijtimoiy kontent tarqatishdagi roli hali cheklangan. Twitter esa global miqyosda siyosiy munozaralar maydoni bo‘lsa-da, O‘zbekistonda unchalik ommalashmagani bois yoshlar u orqali fikr bildirishdan yiroq.

Yuqoridagi platformalar ommaviyligi shuni ko‘rsatadiki, yoshlar axborot maydonini asosan mobil ilovalar orqali egallagan. Bu platformalardagi faoliyat jamiyatda fuqarolik ongi qanday

shakllanishiga ham ta'sir etadi. Misol uchun, Telegram'dagi guruh va kanallarda tarqatiladigan ma'lumotlar tezkor jamoaviy fikr hosil qilishga yordam beradi, biroq shu bilan birga, noto'g'ri axborot tarqalish xavfini ham oshiradi.

Platformalar xilma-xilligiga qaramay, yoshlar o'zlarini ifoda etish uchun ko'proq ommabop tarmoqlarnigina tanlamoqda va bu tanlov siyosiy ishtirok darajasiga ham ta'sir etadi. Keng omma bo'lgan platformalarda (Telegram, Instagram) ular ehtiyyotkorlik bilan harakat qilsa, torroq auditoriyali Twitter'da faollik pastligi fikr bildirish imkoniyatini cheklaydi. Natijada, siyosiy munozaralar ko'proq norasmiy kanallar (Telegram chatlari, YouTube sharhlari)da kechishi mumkin.

Yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faollikka oshno bo'lishida ularni qiziqtirgan mavzular va faollikka undovchi omillar muhim o'rinn tutadi. So'rovnama doirasida yoshlardan internetda qaysi mavzularda faol munosabat bildirishlari so'ralgan. Natijalar shuni ko'rsatadi, yoshlar eng ko'p ijtimoiyadolat va huquqlar masalalarida jonlanadilar. Bu ko'pincha milliy va shaxsiy ehtiyojlar bilan ham bogliqdir. "Ehtiyoj – sub'ektholatinianiqlovchimunosabatidir. Millattomonidanchuquranglab yetilganehtiyojlar milliy manfaatlargaayylanadiki, xuddi ana shu manfaatlar millat va elatlar ijtimoiy faoliyatini asosini, manbasini tashkil etadi. Milliy ehtiyojlarning bevosita ifodasi hisoblangan milliy manfaatlar aniq bir maqsadga bo'ysundirilgan." [3]



2.4-rasm. Yoshlarni qiziqtirgan mavzular


Grafikdan ko'rinish turibdi: respondentlarning 20% "Ayollar va bolalar huquqlari" mavzusida faol ekanini aytgan, 18% "jamiyatdagi adolatsizliklar"ga munosabat bildiradi, 16% esa "tabiat va atrof-muhit muhofazasi" mavzusida faollik ko'rsatadi. Shu bilan birga, "siyosiy voqealar"ga faollik bildiradiganlar ulushi atigi 11% ni tashkil etadi, bu eng past ko'rsatkich. Eng katta qism – 35% yoshlar "boshqa mavzular" variantini tanlashgan, ya'ni ro'yxatda keltirilmagan

boshqa yo‘nalishlarda (masalan, sport, madaniyat yoki shaxsiy qiziqishlar) faol yoki umuman hech qaysisiga qo‘shilmagani ham bo‘lishi mumkin.

Bu tendensiyalar yoshlar qanday sabablar bilan raqamli faollikka intilishini ko‘rsatadi. Ayollar va bolalar huquqlarining yetakchilik qilishi bejiz emas – so‘nggi yillarda jamiyatimizda ushbu mavzu dolzARB bo‘lib, yosh avlod orasida gender tengligi va ijtimoiy adolatga qiziqish ortib bormoqda. Bu – fuqarolik ongi yuksalishining alomati, chunki yoshlar jamiyatdagi nohaqliklarga befarq emasligini bildiradi. Tabiat muhofazasiga qiziqish ham shuni ko‘rsatadiki, global ekologik muammolar mahalliy yoshlar ongida aks-sado bermoqda – bu ham ijtimoiy mas’uliyat belgisi.

Biroq, siyosiy voqealarning eng oxirgi o‘rinda qolishi e’tiborga loyiq. Yoshlar mamlakatdagi yoki dunyodagi siyosiy jarayonlarga qaraganda ko‘proq ijtimoiy masalalarga e’tibor qaratmoqda. Bu ikki sabab bilan izohlanishi mumkin: birinchidan, ayrim yoshlar siyosiy jarayonlarga ishonchi pastligi yoki o‘zini ta’sir o‘tkaza olmasligini his etishi tufayli siyosatdan chetroq turadi; ikkinchidan, ular nazarida ijtimoiy masalalar (huquqlar, adolat) hayotiyroq va dolzarbroq bo‘lib ko‘rinadi. Natijada, fuqarolik faolligi siyosiy partiylar yoki saylovlardan ko‘ra ko‘proq ijtimoiy kampaniyalar, xayriya va adolat talab qilish shaklida namoyon bo‘lmoqda.

Yoshlarning faolligini oshirish uchun qanday omillar muhimligi haqida ham so‘rovda ma’lumot olingan. Respondentlarning deyarli yarmi (43%) “barchasi” degan variantni tanlab, bir nechta omillarning birgalikda ahamiyatini e’tirof etishgan



2.5-rasm. Yoshlarning faolligini oshirish omillari


Diagrammadan ko‘rinib turibdi: qolganlar orasida 23% “yoshlarning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash”ni, 19% “raqamli savodxonlikni oshirish”ni va 14% “davlat va jamoat tashkilotlari bilan muloqotni kuchaytirish”ni alohida ta’kidlagan. Demak, yoshlarning o‘z faolligini namoyon etishi uchun, ular tashabbuslarini rag‘batlantiruvchi muhit, yuqori raqamli madaniyat (axborotdan

to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmalari) va hokimiyat hamda jamiyat o‘rtasida ochiq muloqot bo‘lishi zarur deb hisoblashadi.

Bu omillar aslida bir-biri bilan uzviy bog‘liq. Raqamli savodxonlik oshsa – ya’ni yoshlar internetda tanqidiy fikrlash va ma’lumotdan foydalana olish qobiliyatiga ega bo‘lsa – ular manipulyatsiya va yolg‘on xabarlardan kamroq chalg‘iydi va o‘z fikrini mustaqil shakllantiradi. Yoshlar tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash esa ularga real o‘zgarishlar qilishi mumkinligini ko‘rsatib, rag‘bat beradi (masalan, muvaffaqiyatli fuqarolik tashabbuslari hukumat tomonidan e’tirof etilsa, boshqalarning ham faolligi ortadi). Davlat va jamoat tashkilotlari bilan muloqotning kuchayishi – ya’ni yoshlar o‘z fikrini eshittira olishi va fikri inobatga olinishini his etishi – siyosiy ishtirokni oshiradi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Shunday ekan, yoshlarni ijtimoiy-siyosiy faollikka undash uchun ta’lim, muloqot va qo‘llab-quvvatlash birdek muhim. Keyingi bo‘limlarda yoshlarning internetda axborotga munosabati hamda raqamli faollik borasidagi taassurotlari haqida ma’lumotlar keltiramiz.


Yoshlar internet orqali turli ijtimoiy-siyosiy axborotlarni ko‘rib baho berar ekan, ular shakllantirgan taassurot va ishonch darajasi ularning faolligiga ta’sir ko‘rsatadi. So‘rov natijalariga ko‘ra, yoshlarning aksariyati internetda tarqatilayotgan axborotga kritik nuqtai nazardan qarashadi va tanlab ishonishadi



2.6-rasm. Ijtimoiy tarmoqlarga ishonch

Ko‘rinib turibdiki, 48% respondent “tanlab ishonaman” degan, ya’ni hamma ma’lumotga ko‘zi yumilib ishonmaydi. 38% “ko‘pincha shubha bilan qarayman” deb, aslida ishonchszizlik bildirmoqda. Faqat 0,5% (diagrammada 0% sifatida aks etgan) “juda ishonaman” deb aytgan, xolos. Demak, deyarli hech kim ijtimoiy tarmoqlardagi ma’lumotga to‘la ishonch bildirmaydi, aksincha tanqidiy yondashuv ustun.

Bu juda muhim jihat: yoshlarning axborot olish madaniyati shakllanayotgan bo‘lib, ular har bir xabarga ishonmasdan, tahlil qilishga harakat qilishadi. Buning ijobiy tomoni shundaki, raqamli manipulatsiyalarga uchrash ehtimoli kamayadi. Haqiqatan ham, so‘rovda yoshlarning 84% ga yaqini internetda manipulyatsiya xavfi mavjudligini tan olgan (36% buni “jiddiy muammo” deb biladi, 48% “ba’zan kuzatiladi” deydi)




2.7-rasm. Axborot olish madaniyati

Faqat 2% atrofida respondent “bunday xavf yo‘q” deb o‘ylaydi, qolganlarning ko‘pchiligi turli darajada bo‘lsada, yoshlar ongi manipulyatsiya nishoniga aylanishi mumkinligini ehtimol sifatida ko‘radi.

Demak, bugungi yoshlar axborot xurujlari va yolg‘on yangiliklar borligini yaxshi tushunishadi. Ularning ijtimoiy tarmoqlardagi ishonchi past bo‘lsa-da, bu aslida sog‘lom alomat – ular barcha ma’lumotni tanqidiy filtrdan o‘tkazmoqda. Shu bilan birga, doimiy shubha bilan qarash axborotga bo‘lgan ishonchszlik muhitini ham yaratadi, bu jamiyatda rasmiy manbalarga ishonch masalasini kun tartibiga olib chiqadi.

Yoshlarning raqamli faollik borasidagi umumiyligi taassurotlari haqida so‘ralganda, ularning nuqtai nazari muvozanatli ekani ko‘zga tashlanadi. Ko‘pchilik (75%) yoshlarning raqamli faolligi jamiyatga “har ikki tomonlama” ta’sir qilishini aytgan



2.8-rasm. Yoshlarning raqamli faolligi

Ya’ni, respondentlar nazarida, yoshlar faolligining jamiyat uchun ijobiy jihatlari ham bor, salbiy jihatlari ham. Taxminan 13% buni faqat “ijobiy” deb bilsa, atigi 3% “salbiy” deb hisoblaydi, qolgan 9% esa aniq fikrga ega emas (“bilmayman”). Bu shuni anglatadiki, yoshlar raqamli faollikni ikkitomonlama qilich sifatida ko‘rishadi: agar to‘g‘ri yo‘naltirilsa, u jamiyatda ijobiy o‘zgarishlar keltirishi mumkin (masalan, muammolarni ochiq ko‘tarish, jamoatchilik nazorati), lekin nazoratsiz yoki destruktiv bo‘lsa, barqarorlikka xavf tug‘dirishi, chalg‘ituvchi tartibsizliklarga olib kelishi mumkin.

Bu nuqtai nazar ijtimoiy barqarorlik masalasi bilan chambarchas bog‘liq. Yoshlarning aksariyati faollikning ijobiy taraflarini e’tirof etar ekan, baribir uning salbiy oqibatlarini ham esdan chiqarmayapti. Masalan, ijtimoiy tarmoqlardagi ortiqcha emosional chiqishlar yoki yolg‘on xabarlar tarqalishi jamoatchilik orasida tushunmovchilikka sabab bo‘lishi mumkin – buni yoshlar yaxshi anglashadi.E.Kadirov «Siyosiy madaniyat - insonning siyosiy tarixiy tajribalari asosidagi siyosiy tizim, siyosiy voqelik, siyosat, qonunlar va uning amal qilish qoidalari haqidagi tasavvurlari, shaxsning fikrlash, voqelik va hodisalarga ongli munosabatda bo‘lish hamda tizimli dunyoqarash hosil qilishi asosi. Boshqacha qilib aytganda, har bir shaxsning muayyan siyosiy tizimda maqsadli harakat qilishining zaminidir».[4] Shu bois, ular fikr bildirishdan oldin axborotni tekshirishga va asossiz ma’lumot tarqatmaslikka harakat qilishadi. Bu holat, aslida, jamiyat barqarorligini saqlashga xizmat qiladigan o‘zini o‘zi nazorat mexanizmining yoshlar ongida shakllanayotganini ko‘rsatadi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Yuqoridaq ma’lumotlardan kelib chiqib, endi bevosita yoshlarning siyosiy jarayonlarga munosabati va ishtiroki qanday ekani haqida to‘xtalamiz. Avvalo, ularning ijtimoiy-siyosiy mazmundagi postlar va xabarlargaga qiziqish darajasini ko‘rib chiqsak: ko‘pchilik yoshlar bunday kontentni ba’zan kuzatib boradi, bir qismi

doimiy kuzatadi, qolganlari esa umuman e'tibor bermaydi yoki qiziqmaydi. Xulosa o'rnida aytish mumkinki, O'zbekiston yoshlarining internetdagi ijtimoiy-siyosiy faolligi asta-sekin yuksaluvchi jarayonni boshlab berdi. Ular o'z ovozini topishga intilmoqda – goh blogerlik, goh pettsiyalar, goh fleshmoblar orqali. Hozircha bu jarayon sekin va ehtiyyotkorlik bilan kechayotgan bo'lsada, aynan shu ehtiyyotkorlik ularga to'g'ri yo'lni tanlashda yordam beradi. Ijtimoiy tarmoqlarda ulg'ayayotgan avlod tanqidiy fikrlaydi, global voqelikni milliy hayot bilan solishtira oladi va eng muhimmi, befarq emas.

Ana shu befarq emaslik ularning eng katta kuchidir. Raqamli maydon orqali tarbiyalangan bu kuchni to'g'ri yo'naltirsak, yaqin kelajakda faol fuqarolar jamiyatni shakllanadi. Bunday jamiyatda barqarorlik ham, taraqqiyot ham bardavom bo'ladi. So'rov nomasi natijalari esa bizga shuni ko'rsatdiki, bugungi yoshlar buning uchun mustahkam poydevor hozirlashmoqda – ular ko'rmoqda, o'rganmoqda, tahlil qilmoqda va harakatga tayyorgarlik ko'rmoqda. Bu – jamiyatimizning ertangi kuni porloq bo'lishiga xizmat qiladigan eng muhim xulosadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References).

1. Маклуэн Г.Коммуникационная революция.-М.:Наука, 2000.-С.75
2. Ёқубова М. Жамият тараққиётида ахборотлашув ва ахборот технологияларининг аҳамияти. Фалсафа фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация иши. Тошкент, 2007 й. – Б. 105.
3. Чориев С. Сиёсий етук шахсни шакллантириш муаммолари. Фалсафа фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси иши. Тошкент, 2005 й. - Б. 246.
4. Кадиров Э. Ёшларнинг хуқуқий ва сиёсий маданиятини юксалтириш масалалари (Академик лицей ва касб-хунар коллежлари мисолида). Юридик фанлар доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация иши. Тошкент, 2019 й. – Б. 23.